

IBN HAZM ANDALUSIY “AL-FISOL FIL-MILAL VAL-AHWA VAN-NIHAL” ASARINING QIYOSIY DINSHUNOSLIK SOHASIDAGI AHAMIYATI

THE PLACE OF IBN HAZM ANDALUSI'S BOOK “AL-FISAL FIL-MILAL VAL-AHWA VAN-NIHAL” IN THE COMPARATIVE RELIGIOUS STUDIES

ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ИБН ХАЗМА АНДАЛУСИ “АЛ-ФИСАЛ ФИ-Л-МИЛАЛ ВА-Л-АХВА ВА-Н-НИХАЛ” ДЛЯ СРАВНИТЕЛЬНОГО РЕЛИГИОВЕДЕНИЯ

Burgutxonov SAIDUMARXON
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF
UZBEKISTAN

2nd stage master's student of comparative religious
studies

E-mail: saidumarkhon98@mail.uz
11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2022/4/5

Annotatsiya: Dinshunoslik fani insoniyatning madaniy, ma'rifiy, fikriy tarixini o'z ichiga olgan gumanitar fanlar qatoriga kiradi. Bu fanning yirik tarmog'i hisoblangan qiyosiy dinshunoslik sohasi ham nafaqat G'arbda, balki, o'rta asr musulmon Sharqida ham alohida o'rganilgan. Qiyosiy dinshunoslikning ilk asoschilari ham aynan musulmon olimlari hisoblanadi. Ular qatoriga Beruniy, Ibn Hazm, Shahrisoniy, Kalbiy kabi bir qator olimlarni kiritish mumkin.

Xususan, Ibn Hazm Andalusiy ham ilk bor dinlarni qiyosiy o'rgangan musulmon olimlardan biri hisoblanadi. Beruniy va Ibn Hazm islom renessansi davrining yirik namoyondalaridan bo'lib, ularning qiyosiy dinshunoslik sohasi bo'yicha yozib qoldirgan asarlari soha rivojida muhim ahamiyatga ega. Bu ikki qomusiy olimni dinshunoslar “Qiyosiy dinshunoslik sohasining otalari” deya e'tirof etishadi. Ular yozib qoldirgan asarlar hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan va qiyosiy dinshunoslik sohasi tadqiqotchilari uchun asosiy manbalar bo'lib xizmat qilmoqda.

Ushbu maqolada musulmon olamida qiyosiy dinshunoslik sohasining asoschilaridan biri hisoblangan Ibn Hazm Andalusiy hayoti, u yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat va diniy muhit, shuningdek, olimning ilmiy merosi, uning bizgacha yetib kelgan asarlari, bir qator islomshunos va dinshunos olimlarning Ibn Hazm Andalusiy ilmiy merosiga munosabatlari, xususan, uning qalamiga mansub “al-Fisol fil-milal val-ahwa van-nihal” asarining yozilish tarixi, asarda firqalar tasnifi va bu asarning dinlar va ulardagi firqalar tarixiga oid manbalar orasida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ibn Hazm Andalusiyning “al-Fisol fil-milal val-ahwa van-nihal” asari Sharq qiyosiy dinshunosligiga oid ilk manbalardan biri hisoblanadi. Bu asar milal va nihal janrida yozilgan asarlar qatoriga kiradi. Asarda yakkaxudolik va ko'pxudolik dinlari ta'limotlari, ulardagi firqalar, oqim va yo'nalishlar haqida ma'lumotlar berilgan. Turli dinlardagi ta'limotlar o'zaro qiyosiy tahlil qilinib, farqli va o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Muallif dinlar ta'limotlarini bayon qilishda tanqidiy tahlil va ob'yektiv munosabat bildirgan holda yondashgan. Shuningdek, asarda yahudiylilik, xristianlik va islom dinlari ta'limotlari qiyoslanib, ushbu dinlar doirasida bo'linish va firqalarning yuzaga kelish tarixi, har bir firqaning qarash va ta'limotlari, ular keltirgan dalillar batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Ibn Hazm Andalusiy, “al-Fisol fil milal val-ahwa van-nihal”, falsafa, dinlar tarixi, firqalar, oqimlar, Qiyosiy dinshunoslik.

Annotation: ‘Religious studies’ is one of the sciences that include the cultural, educational, and intellectual history of humanity. The field of comparative religion, which is considered a major branch of this science, was studied separately not only in the West, but also in the East in the Middle Ages. The first founders of this science are Muslim scholars. A number of scholars such as Beruni, Ibn Hazm, Shahrisoni, and Kalbi can be included among them.

In particular, Ibn Hazm Andalusiy is considered one of the Muslim scholars who first studied religions comparatively. Beruni and Ibn Hazm are considered to be major representatives of the Islamic renaissance period, and their works on comparative theology are important in the development of this field. These two encyclopedic scholars are recognized by religious scholars as “Fathers of the science of comparative religion”. The works they wrote have not lost their importance to this day and serve as the main sources for researchers in the field of comparative religion.

This article contains information about the life of Ibn Hazm Andalusiy, who is considered one of the founders of comparative religious studies in the Muslim world, the socio-political situation and religious environment of the time he lived, as well as the scientific heritage of the Ibn Hazm, his works that have reached us, the attitudes of Islamic scholars and religious scholars to the scientific heritage of Ibn Hazm Andalusiy, in particular, the history of the writing of his book “al-Fisal fil-milal wal-ahwa van-nihal”, the classification of trends in the book and the place of this book among the books on the history of religions and their trends.

Ibn Hazm Andalusiy's book “al-Fisal fil-milal wal-ahwa van-nihal” is one of the first sources of Eastern comparative religious studies. This work belongs to the works written in the genre of milal and nihal. The work contains information about the doctrines of monotheistic and polytheistic religions, their sects, currents and directions. The concepts of different religions are compared and analyzed, and their differences and unique aspects are studied. The author used a critical analysis and an objective attitude in explaining the teachings of religions. Also, the work compares the concepts of Judaism, Christianity and Islam, the history of division and the emergence of sects within these religions, the views of each

sect, and the arguments presented by them are described in detail.

Key words: Ibn Hazm Andalus, “al-Fisal fil milal wal-ahwa van-nihal”, philosophy, history of religions, trends, sects, Comparative religious studies.

Аннотация: Религиоведение является одной из гуманитарных наук, изучающих культурную, образовательную и интеллектуальную историю человечества. Раздел сравнительного религиоведения, являющийся одной из основных отраслей этой науки, был предметом изучения не только на Западе, но и в средние века на Востоке. К первым основоположникам этой науки можно отнести таких ученых средневекового Востока, как Беруни, Ибн Хазм, Шахристани и Калби.

Ибн Хазм Андалуси является одним из первых мусульманских ученых, которые занимались сравнительным изучением религий. Беруни и Ибн Хазм считаются крупными представителями периода исламского возрождения, и их работы по сравнительному религиоведению имели огромное значение для развития этой области. Эти два ученых-энциклопедиста признаны теологами “отцами науки сравнительного религиоведения”. Написанные ими работы не утратили своего значения и по сей день и служат основными источниками для исследователей в области сравнительного религиоведения.

В этой статье представлена информация о жизни Ибн Хазма Андалуси, считающегося одним из основоположников направления сравнительного религиоведения в мусульманском мире, общественно-политической ситуации и религиозной среде того периода, а также научном наследии ученого, его работах, дошедших до нас, отношении ряда исламских ученых и религиоведов к научному наследию Ибн Хазма Андалуси, в частности, истории написания его книги “ал-Фисал фи-л-милал ва-л-ахва ва-н-нихал”.

Книга Ибн Хазма Андалуси “ал-Фисал фи-л-милал ва-л-ахва ва-н-нихал” является одним из первых источников восточного сравнительного религиоведения. Это книга относится к произведениям, написанным в жанре милал и нихал. Книга содержит информацию об учениях монотеистических и политеистических религий, их сектах, течениях и направлениях. В книге сравниваются и анализируются учения разных религий, изучаются их различия и уникальные аспекты. Автор использовал методы критического анализа и объективный подход исследования. В работе сравниваются учения иудаизма, христианства и ислама, подробно описывается история разделения и возникновения сект внутри этих религий, взгляды и учения каждой секты, а также приводимые ими аргументы.

Ключевые слова: Ибн Хазм Андалуси, “Ал-Фисал фи-л-милал ва-л-ахва ва-н-нихал”, философия, история религий, течения, секты, сравнительное религиоведение.

KIRISH

Ibn Hazmning to‘liq ismi – Ali ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Said ibn Hazm (Zahabiy, 1985:185), kunyasi Abu Muhammaddir. U Ibn Hazm nomi bilan tanilgan. Otasi Abu Amr Ahmad ibn Said ibn Hazm xalifa Mansur ibn Muhammad ibn Omirning vazirlaridan bo‘lgan. Ibn Hazm nasl-nasab jihatidan forsiydir. Uning bobosi Yazid asli eronlik bo‘lib, Yazid ibn Abu Sufyonning ozod qilingan quli bo‘lgan. Yazid ibn Abu Sufyon xalifa Muoviyaning ukasidir (Ibn Asir, 1966:216-218). Ibn Hazmning ajdodlari ispan xristianlaridan bo‘lgani haqida ham tarixiy ma’lumot kelgan (O‘zdemir, M., 2010:29-30). Biroq, bu fikr noto‘g‘ri ekanligi isbotlangan va hatto mashhur ispan sharqshunosi Asin Palasios ham Ibn Hazm asli nasroniy degan fikrni rad etgan (Muhamad H., 2008:37). Abu Zahraning aytishicha, Ibn Hazm o‘z tarjimai holini yozayotganda asli forsiyman, deb aytgan.

Ibn Hazm Andalusiy 994-yil (hijriy 384-y.), Andalusiyanning sharqida, Kordova shahrida tug‘ilgan (Islam., 1991:87). Ibn Abdullbarr, Abul-Hiyar Mas‘ud ibn Sulaymon, mantiqda Kattoniy nomi bilan mashhur bo‘lgan Muflit, Abdurrahmon va Abdulloh Azdiy, Muhammad ibn Hasan Majjiy Ibn Hazmning mashhur ustozlaridandir (Zahabiy, 1985:186).

Ibn Hazmning mashhur shogirdlaridan uning o‘g‘li Abu Rofi’ Fadl, Abu Abdulloh Humaydiy, Ibn Arabiyning otasi Abu Muhammad Abdulloh ibn Muhammad va Abul-Hasan Shurayh ibn Muhammadlarni keltirish mumkin. Ulardan Humaydiy (vaf. 488/1095) hadisda hofizlik darajasiga erishgan. Humaydiyning hadisda “al-Jome’ baynas-Sahihayn”, tarix bo‘yicha “Jazvatul-muqtabis” va “Kitobul-amaniy as-sodiq” nomli asarlari mashhurdir. Muhammad ibn Tohir Maqdisiy Humaydiyning shogirdi hisoblanadi (Abu Zahra., 2009:234).

Ibn Hazm haqida ko‘plab mashhur olimlar o‘z fikrlarini bildirishgan. Jumladan, Abu Homid G‘azzoliy aytadi: “Abu Muhammad Ibn Hazm Andalusiyning Alloh taoloning ismlari haqida yozilgan asarini topdim. Bu asar uning kuchli xotira va o‘tkir zehnlilik ekanligidan dalolat beradi.” (Ibn Hazm., 2007:6).

Humaydiy ham Ibn Hazm haqida shunday deydi: “Ibn Hazm hadis va fiqhul-hadis hofizi, kitoblar va sunnatlardan hukm chiqarishga qodir, ko‘p ilmlar bo‘yicha mutaxassis, olim edi. Men u kabi aqlli, xotirasi kuchli, or-nomusli va o‘zini tuta oladigan, taqvodor odamni ko‘rmaganman.”

Manbalarda hofizlik, muhaddislik va fiqhul-hadis olimi kabi fazilatlar bilan tilga olingan Ibn Hazm aqliy qobiliyatlari jihatidan juda mashhur olim sifatida tanishtiriladi. Shuningdek, uning barcha islomiy ilmlarni chuqur egallagani, adabiyot va she’riyatdan mohirligi, til, siyar va tarixdan keng bilimga ega ekanligi, bu

sohalarning barchasida asarlar yozgani aytiladi. Ayniqsa, u ko'p tillarni, jumladan lotin tilini ham bilganligi ta'kidlanadi. Ayni paytda hadis, fiqh, nasl-nasab, adabiyotga oid fanlar va qadimiy ta'limotlarga asoslangan mantiq va falsafa kabi fanlar olimning chuqur o'rgangan sohalari qatoriga kiradi (Burgutkhonov S., 4:705).

Ibn Hazmning shogirdi Said Jayyoniyni yozishicha, Ibn Hazm 994-yil (hijriy 384-y.) Ramazon oyining oxirgi chorshanbasida quyosh chiqmasdan oldin dunyoga kelgan. U umrining so'nggi kunlarini Manta Lishamda e'tikofda o'tkazdi. U qariyb yetmish ikki yil yashadi. Ibn Hazmning o'g'li Abu Rofi' Fadl otasining vafoti 15-avgust, 1064-yil (hijriy 28-shabon, 456-y.) ekanligini ta'kidlaydi. Zahabiyni aytishicha, Ibn Hazm xotirani kuchaytiruvchi Luban deb nomlangan o'simlikni yeb, moxov kasalligiga chalingan va vafot etgan (Ibn Xallikon, 2011:327).

USLUBLAR

Ibn Hazm islom olamida ko'plab asarlar yozgan olimlar qatoriga kiradi. U Ibn Jarir Tabariydan (vaf. 310/922) keyin eng ko'p asar yozgan musulmon olimi sifatida tanilgan. Olim 10 dan ziyod ilm-fan sohasida kitoblar ta'lif etgan. Uning o'g'li Abu Rofi' Fadlning aytishicha, otasi fiqh, hadis, uslub, tarix, adabiyot va raddiyaga oid to'rt yuzta asar yozgan. Bu taxminan sakson ming sahifaga to'g'ri keladi (Zahabi, 1985:205). Bu asarlardan bir yuz ellikka yaqinining nomi manbalarda keltirilgan. Ibn Hazmning hozirda mavjud va nashr etilgan asarlari quyidagilardir:

1. "Al-Muhalla". Bu zohiriy fiqhga oid asar bo'lib, muallifning "al-Mujalla" kitobining sharhidir. Ibn Hazm bu asarni nihoyasiga yetkazmay vafot etgani bois, qolgan qismini o'g'li Abu Rofi' otasining "al-Iyol" asaridan xulosa qilib tugatgan. "Al-Hisol" va uning sharhi bo'lgan "al-Iyol"ning bugungi kungacha yetib kelganligi ma'lum emas. "al-Muhalla" asari Ahmad Muhammad Shokir tomonidan tahrirlangan va nashr etilgan, Qohira 1347-1352.

2. "Al-Ihkam fi usulil-ahkam". Bu zohiriy fiqhining fikr va usuli haqida, Ahmad Muhammad Shokir tomonidan tahrirlangan va sakkiz juzda nashr etilgan, Qohira 1345-1348/1926-1929. Ihsan Abbos so'zboshisi bilan sakkiz juz bo'lib, ikki jildida qayta nashr etilgan. Bayrut 1980-1983.

3. "An-Nubzatul-kafiya fi ahkamid-din". U Ibn Hazm tomonidan "al-Ihkam"dan keyin yozilgan ixcham fiqh usuli kitobidir. U Zohid Kavariy tomonidan "an-Nubaz fi usulil-fiqhiz-Zohiriy" nomi bilan nashr etilgan, Qohira 1940.

4. "Maratibul-I'jma". Fiqhning ijmo' boblari bo'yicha masalalarini jamlagan bu kitob bir necha marta nashr etilgan, Qohira 1357/1938.

5. "As-Siyasa". Ibnul-Azraq G'irnaty tomonidan "Bado'ius-suluk fi taba'il-mulk" asari bilan birga nashr etilgan, Bag'dod 1978 yil.

6. "Mulaxxasu (Talxisu) ibtalil-Qiyas var-Ray val-Istihsan vat-Ta'il". Said Afg'oni tomonidan nashr etilgan, Damashq 1379/1960.

7. "Jamharatu ansabil-arab". Bu eng keng qamrovli ansob kitoblaridan biri bo'lib, bu mavzudagi keyingi ishlar uchun manba bo'lib xizmat qildi. Arablarning Adnon, Kaxton, X uzo'a qabilalarining nasl-nasabini o'z ichiga olgan asar ushbu qabilalari haqida qiziqarli ma'lumotlar berib, ularning ilmiy va ma'muriy vazifalarini ko'rsatib o'tgan. Shuningdek, u tarixiy, siyosiy va adabiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan asardir. Asar Abdussalom Muhammad Horun tomonidan nashr etilgan, Qohira 1962/1977.

8. "Javami'us-siyr". U Ibn Is'hoqdan iqtibos keltiradigan ixcham biografik kitob bo'lib, Ehsan Abbos va Nosiruddin Asad tomonidan muallifning besh risolasi bilan birga "Javami'us-siyr va xamsu rosail uxro" nomi bilan nashr etilgan, Qohira 1955, 1956, 1959.

9. "Hajjatul-vada". Bu asar Mamduh Haqqi tomonidan nashr etilgan, Damashq 1956.

10. "Al-Fisol fil-milal val-ahva van-nihal". Din va mazhablarga oid bu asar ilk bor Qohirada Shahristoniyni (1317-1321) "al-Milal van-Nihal" asari bilan birga nashr etilgan. Keyinchalik Ibrohim Nosir va Abdurahmon Umayra tomonidan nashr etilgan, Jidda 1402/1982; Bayrut 1985 yil.

11. "At-Taqrif li haddil-mantiq val-madhal ilayhi bil-alfazil-ammiyya val-amsilatil-fiqhiyya". Bu asar Aristotelning mantiqqa oid asarlarining izohi bo'lib, mantiq fanining ahamiyatini ko'rsatish hamda mantiq va falsafaga oid noto'g'ri qarashlarni inkor qilish maqsadida yozilgan. Bu asar Ihsan Abbos tomonidan nashr etilgan, Bayrut 1959-1983.

12. "Muda'vatun-nufus va tahzibul-axlaq vaz-zuhd fir-rozail". Mustafu Qabboniy tomonidan ko'p marta nashr qilingan, shuningdek, bu asar "al-Axlaq vas-siyar" nomi bilan ham tanilgan, Damashq 1323/1905.

13. "Al-Usul val-furu". Turli aqidaviy mavzularni o'z ichiga olgan asar. Muhammad Otif Iroqiy, Suhayr Fazlulloh va Ibrohim Hilollar tomonidan nashr etilgan, Qohira 1978.

14. "Tavqul-hamoma fil-ulfati val-ullaf". Bu asar sevgi va oshiqalar haqidagi she'r va nasr to'plami bo'lib, ko'p marta nashr etilgan, D.K. Petrof, Leyden, 1914 yil.

15. "Diyvanush-shi'riy". Muallif: Muhammad al-Hadi'. Tripoli, Tunis 1972 yil.

Yuqorida sanab o'tilgan asarlardan tashqari Ibn Hazmning turli mavzularda o'ttizga yaqin risolasi bor. Ulardan bir qanchasi mustaqil nashr etilgan, qolganlari esa turli jurnallarda chop etilgan.

Ibn Hazm 26 yoshigacha barcha islomiy ilmlarni o'rganib chiqadi hamda islomdan boshqa dinlar:

yahudiylik, xristianlik, shuningdek, zardushtiylik, moniylik, mazdakiylik, hinduiylik, buddaviylik va boshqa din, oqim va yo'nalishlarni o'rgana boshlaydi. U barcha dinlarni o'rganib chiqqach ular haqida bir kitob yozishni maqsad qiladi. Natijada u 20 yillik izlanishi samarasi o'laroq "al-Fisol fil-milal val-ahva van-nihal" asarini yozib tugatadi.

NATIJA

Ibn Hazm Andalusiy "al-Fisol fil milal val-ahva van-nihal" asarini bizgacha bir qator olimlar o'rganishgan. Ular qatoriga G'arb olimlaridan A. J. Arberry, Teadora Pulchini, Kamilla Adag, Gabriel Martinez-Gros, Maribel Fierro, Nurshif Rif'at, Villiam M. Brinner kabilarni, Sharq olimlaridan esa, Abdulhakim Shahrisoniy, Mahmud Ali Himaya, Hasson Mahmud Hasson, Anvar G. Chejne kabilarni kiritish mumkin.

Ispan sharqshunos olimi Migel Asin Plasios Ibn Hazmning Ispaniya musulmon madaniyatida tutgan o'rnini alohida e'tirof etadi. U Ibn Hazmning o'rta asrlar musulmon madaniyatiga ta'sirini bayon qilgan va uning axloqiy qarashlariga bag'ishlangan risolasini yozgan. Keyinchalik, Ibn Hazmning din tarixi haqidagi qarashlariga oid kitob chop etgan. Ibn Hazm Andalusiyning "al-Fisol" asarini uzoq yillar davomida o'rgangan. Asarning eski qo'lyozma nusxalarini tadqiq etgan. Tadqiqotlari natijasi o'laroq "al-Fisol" asarining bir eski qo'lyozmasini ispan tiliga tarjima qilgan va uni besh jildda nashr qilib chiqartirgan (Reynold A. N., 1962:427:428).

Germaniyalik sharqshunos Karl Brokkelman Ibn Hazmning "al-Fisol" asari haqida quyidagicha fikr bildirgan: "Ibn Hazmning ushbu asari buyuk tarixiy diniy asar. Bu kabi asar hali jahon adabiyotida yaratilmagan (Carl B., 2019:234).

Yana bir G'arb olimi Ibn Hazm haqida shunday fikr bildirgan: "Ibn Hazm Andalusiy G'arbda qiyosiy dinshunoslik fani asoschisi sifatida e'tirof etiladi." (Mahmud A.H., 1983:11).

Amerikalik islomshunos professor Filip Hitti "al-Fisol" asarini Ibn Hazm Andalusiy qalamiga mansub eng nodir asar, Ibn Hazm esa, dinlar va millatlarni tadqiq etgan olimlar orasida eng yuksak va mohir olim, deya e'tirof etgan (Philip K.H., 1934:214).

Charlz Pellat "Ibn Hazm al-Andalusi" nomli maqolasida shunday yozadi:

"Abu Muammad Ali ibn Muhammad ibn Sa'd ibn Hazm, shoir, adabiyotshunos,

tarixchi, siyosatchi, ilohiyotchi, mantiqchi, metafizik va psixolog. U Ispaniyadagi arab madaniyati asoschisi va samarali vakillaridan biri edi (Pellat C., 1961:71).

MUHOKAMA

Ibn Hazmning "الفصل في الملل والأهواء والنحل" (al-Fisol fil-milal val-ahva van-nihal) – "Millatlar, oqimlar va diniy ta'limotlar haqida maqolalar" asari dinshunoslik, dinlardagi yo'nalishlar va oqimlar va ularni qiyoslash bo'yicha yozilgan.

Tojuddin Subkiy (v.771/1370) o'zining "Tabaqot" asarida bu asarning nomini "al-Milal van-nihal" deb zikr qilgan (Subkiy., 1999:134). Ibn Hazmning shogirdi Humaydiy esa, bu asarni "al-Fasl fil-milal val-ahva van-nihal" deb atagan (Humaydiy., 1953:291). Mahmud Ali Himoya fikricha, tadqiqotchilar bu asar nomining "al-Fasl" yoki "al-Fisol" ekanligi borasida ixtilof qilganlar. Al-Azhar ulamolari bu so'zni "al-Fisol" deb talaffuz qilganlar (Mahmud A.H., 1983:95-98).

Abu Zahro ham bu borada quyidagi fikrni ilgari suradi: "Ibn Hazm turli risolalar yozgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos mavzuni o'z ichiga oladi. Ibn Hazm bu kichik hajmdagi risolalarni kitobga aylantirmoqchi bo'lgan va ularni bir joyga to'plab, "al-Fisol" deb nom bergan. Chunki "Fisol" so'zi "Fasla"ning ko'pligi bo'lib, yetishtirish uchun bir joydan ikkinchi joyga ko'chiriladigan xurmo daraxtining "ko'chat"i ma'nosini bildiradi" (Ibn Manzur., 1987:523). Abu Zahro bu fikrni isbotlash uchun uning "Risala fil-mufadala baynas-sahoba" asari alohida asar bo'lsa-da, keyinchalik "Kitobul-fisol" tarkibiga kiritilganini eslatadi.

"الفصل" (al-Fisol) so'zi lug'atda, fasl so'zidan olingan bo'lib, biror narsani uzish yoki uzilishi degan ma'nolarni anglatadi. Bu so'z millatlar va firqalar bo'yicha qo'llanilganda oqimlar va firqalar haqida ajratuvchi qavllarni nazarda tutadi. Ibn Hazm bu atamani kitob nomiga qo'yishdan maqsad fisol deganda u islomdan boshqa aqida va ta'limotlarni nazarda tutgan.

Jurjoni millat, mazhab va din o'rtasidagi farqni sharhlab shunday degan: "Din va millat bir nuqtada birlashuvchi ikki tushunchadir. E'tibor jihatidan esa, turlicha ma'noga egadir. Shari'atning toat-ibodat vazifasi din, uning o'z atrofida dindorlarni birlashtirish vazifasi millat va unga murojaat qilish esa, mazhab deb nomlanadi. Negaki, din Ilohga mansub, millat payg'ambarga mansub va mazhab esa, mujtahidga mansubdir" (Jurjoni., 2007:674).

Ahvonning ta'rifi manbalarda quyidagicha kelgan: "Ahvo ahli – bu Ahli sunna e'tiqodidan boshqa bo'lgan ahli qibla hisoblanib, ularga jabariya, rofiziya, xavoriy, mo'tazila, mushabbiha kabi firqalar kiradi".

Nihal esa, nihla so'zining ko'plik shakli bo'lib, asli yo'q bo'lgan narsaga da'vat, chaqiriq, oqim, toifa kabi ma'nolarni anglatadi. Istilohda esa, tizimlashtirilgan qarash yoki fikrga amal qilish va uni himoya qilishni anglatadi.

"Al-Fisol" asari ham "milal va nihal" janrida yozilgan asarlarning eng mashhurlaridan hisoblanadi.

Jumladan, “Tabaqot” asarining muallifi Tojuddin Subkiy bu asar haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Firqalar haqida tasnif etilgan asarlardan eng yaxshilari Shahrisoniyning “al-Milal van-Nihal”i va Ibn Hazmning “al-Fisol” asaridir” (Xoji Xalifa., 1999:821).

Ibn Hazm bu atamalarni ma’lum ma’nolarda ishlatgan. U milal bilan ilohiy va xurofiy dinlarni o’rganib chiqdi. Chunki, asar boshida ahvo so’zini faqat Dunyoda Iloh yo’q deganlar va dunyoni muqaddas deb tan oluvchilar, hamda, payg’ambarlikni inkor qiluvchilar uchun ishlatgan. Nihal so’zi bilan fikr, toifa va oqimlarni nazarda tutgan. Shu bilan birga, nihol atamasi bilan islomdagi mazhablarga murojaat qilgan (Ibn Hazm., 2007:367).

Ibn Hazm bu asarini ba’zan “Devon” deb ham atagan (Ibn Hazm., 2007:64). Chunki, bu asar barcha xalq mazhablari, dindorlar va boshqa fikr egalari adashgan tomonlarini tanqid qilishdan iborat. Majid Halaf Munshir Ibn Hazmning “al-Fisol” kitobini o’rganar ekan, bu asar kichik hajmdagi ilmiy risolalar to’plami ekanligini aytadi.

“Al-Fisol” asarining aniq yozilgan sanasi ma’lum emas. Chunki, Ibn Hazm asarni yozishni boshlash va tugatish sanasini aniq ko’rsatmagan. Aniq sanani bilish qiyin bo’lsa-da, Ibn Hazmning boshqa asarlarida keltirilgan ba’zi voqealar asar yozilishining taxminiy sanalarini ko’rsatadi. Ibn Hazmning “Al-Ihkam” asaridagi ishoraga ko’ra, Ibn Hazm “al-Fisol”ni “at-Targ’ib”asaridan oldin va “al-Ihkam”asaridan keyin yozgani ma’lum. Ammo u “al-Fisol”ning uchinchi va keyingi boblarida Ibn Hazm “al-Ihkam”ga ishora qiladi. Bundan ma’lum bo’ladiki, Ibn Hazm “al-Fisol”ning dastlabki ikki qismini “al-Ihkam”ni boshlashdan oldin yozgan. “Al-Fisol” ning uchinchi va keyingi qismlarini “al-Ihkam” bilan bir vaqtda yozgan bo’lishi mumkin (Ibn Hazm., 2007:106).

Umumiy fikrga ko’ra, Ibn Hazm bu asarini 1027 va 1030-yillar oralig’ida yozgan. Bu sanalar Andalusiyada Hishom al-Mu’tad Billahning xalifalik davriga to’g’ri keladi. Ibn Hazmning o’zi bu sanani asarida aytib o’tgan (Ibn Hazm., 2007:28). Shuningdek, kitobda yozilgan sana haqida boshqa qarashlar mavjud. U boshqa bir joyda Imom Muhammad Mahdiyning g’oyib bo’lishi bundan 171 yil oldin bo’lganiga ishora qiladi. Ushbu tushuntirishlar asarning yozilish sanasini 1038-yil ekanligini ko’rsatadi.

Ma’lumki, islom dini paydo bo’lgan kundan boshlab Sharq va G’arbda tez tarqala boshlagan. Turli e’tiqod va madaniyatga ega bo’lgan xalqlar bu yangi dinni qabul qildilar. Musulmon xalqlari o’zlarining eski e’tiqodlari, urf-odatlar va madaniyatlaridan butkul ajralmadilar, ularni ozmi-ko’p davom ettirdilar. Turli madaniyat unsurlari islom diniga aralashib keta boshlaganligi sababli islom ulamolari yot unsurlarni aniqlash va ularning haqiqiy islom e’tiqodiga aloqasi

yo’qligini ko’rsatish maqsadida o’z asarlarini yozishga kirishdilar (Isakdjanov R.R., 2022:12-13).

Ibn Hazm asarini yozishdan maqsad tarix va tarixiy voqealarni xronologik tartibda yozish emas, balki adashgan firq va toifalarning xatolarini isbotlash, Ahli sunnani himoya qilish uchun yozilgan. Ibn Hazm bu asarida firq va oqimlar haqida o’zidan oldin yozilgan asarlarni to’plab, baholagan va qanday xulosaga kelgani, o’z maqsadi nima ekanligini tushuntirgan.

Ibn Hazm ushbu kitobining muqaddimasida asarni ta’lif etishdan maqsadini aytib o’tadi: “Ko’pchilik insonlarning dinlarida firqalarga bo’linib ketishi haqida juda ko’plab maqola, risola va kitoblar yozishdi. Ba’zilar bir necha o’n jild va undan ham ko’p kitoblar yozib, dinlar haqida ko’p so’z yuritdi, batafsil ma’lumotlar berdi. Lekin ularda xolis fikrlar kam bo’lib, juda ko’p xatolarga yo’l qo’yilgan. Ularning ko’pchiligi fahmdan yiroq va aqldan ayro holda yozilgan. Ba’zilar esa, bu borada qisqa va muxtasar ma’lumotlar bergan. Men ushbu asarimda islomdagi firq va yo’nalishlar haqida ma’lumot berish bilan birga, yahudiylilik va xristianlik ta’limotlari, muqaddas manbalari, ulardagi firq va yo’nalishlar, shuningdek, yunon falsafasi, qadimgi dinlar, otashparastlik, quyosh va yulduzlarga sig’inish, zardushtiylik, hinduiylik, buddaviylik, konfutsiylik haqida ham ma’lumotlar berib o’tdim.” (Ibn Hazm., 2007:6).

Ibn Hazmning yuqoridagi muqaddimasidan uni “al-Fisol” asarini yozishga undagan bir qancha sabablar ko’zga tashlanadi. Ulardan ba’zilari: U o’zi yashagan asr “Milal” kitoblarining eng adolatli kitobi bo’lishini xohladi. U so’zlarni uzaytirishdan qochdi va aniq dalillarni taqdim etdi. Shu bilan birga, u Qur’onni masxara qilish uchun risola yozgan Ibn Najrilga va unga o’xshagan musulmon bo’lmaganlarga raddiya berish maqsadida ushbu asarni yozdi.

Milal va nihol janrida Shahrisoniydan oldin yozilgan asarlar orasida ilmiy qiymati va ahamiyatiga ega bo’lgan asarlardan biri Ibn Hazmning “al-Fasl fil-milal val-ahva van-nihal” asaridir. Asar umumiy uchta qismga bo’linadi:

Birinchi qismda muallif qadimgi yunon faylasuflarining qarashlarini keltirib o’tgan. Ularning mantiqqa zid qarashlarini keltirib, ularga ilmiy raddiyalar bergan. Ibn Hazm ularning adashgan joylarini ilmiy asosda ko’rsatib bergan. Shuningdek, ushbu qismda Ibn Hazm quyosh, oy, but-sanamga sig’inuvchi toifalar, otashparast, majusiy, zardushtiyalar, hinduiylar va boshqa dinlar ta’limotlari haqida keng ilmiy faktlarga asoslangan ma’lumotlar bergan. Har bir din haqida bergan ma’lumotlarini o’sha dinning muqaddas manbasidan keltirishga harakat qilgan.

Ikkinchi qism yahudiylilik va xristianlik dinlariga bag’ishlangan. Bu qismda Ibn Hazm yahudiylilik dinining

yuzaga kelish tarixi, ta'limoti, ibodatlari, muqaddas manbalari, payg'ambarlari haqida ma'lumot bergan. Shuningdek, xristianlikdagi muqaddas manbalar, uning ta'limotlari haqida ham to'xtalib o'tgan. Ushbu qismning oxirida Ibn Hazm Tavrot va Injil haqida to'liq ma'lumotlar keltirib, undagi ma'lumotlarni Qur'oni karimdagi kelgan xabarlar bilan qiyoslab tahlil qilgan. Uchala diniy manbada kelgan ma'lumotlarning o'xshash va farqlilarini alohida guruhga ajratgan.

Uchinchi qismda esa, Ibn Hazm islomdagi firqa va yo'nalishlar haqida so'z yuritgan. Ushbu qismda muallif islom dinidagi ilk firqalanishdan boshlab, o'zining davrigacha yuzaga kelgan firqa va yo'nalishlar haqida ma'lumotlar bergan (Toxtiev Sh., 2020:82-90). Har bir firqaning yuzaga kelish tarixi, qarash va ta'limotlari, adashgan joylari haqida batafsil to'xtalib o'tgan. Ibn Hazm ushbu ma'lumotlarni faqatgina kitoblarda kelgan ma'lumotlarga tayanib yozmagan, balki uning o'zi har bir firqa va yo'nalish vakillari va imomlari yoniga borib, ularning ta'limotlarini o'z og'zidan yozib olgan. Kitob oxirida Ibn Hazm adashgan toifalarning qarashlarini keltirib, ularga ilmiy va mantiqiy asosda raddiyalar bergan.

Muallif asarda islom ta'limotlari qarashlariga to'g'ri kelmaydigan olti toifa gufuhlar borligini aytadi va ularni quyidagicha sanab o'tadi:

Birinchi guruh, sofistlar bo'lib, ilohiyotchilar ularni sufistaiyya deb atashadi, ular mavjudotlarning obektiv haqiqatini inkor etadilar.

Ikkinchi guruh esa, dahriylar(moddiyunchilar) bo'lib, ular dunyo abadiydir, shuning uchun ham yaratuvchisi va hukmdori yo'q, deb da'vo qiladilar.

Uchinchi guruh, dunyoni ham azaliy, ham abadiy boshqaruvchisi borligini qabul qiluvchi faylasuflardir.

To'rtinchi guruh, ma'jusiylar, sobi'ylik, moniylik, mazdakiylik, nasroniylik kabi e'tiqodlar bo'lib, ular dunyoni yaratilgan deb hisoblaydilar, lekin bittadan ortiq abadiy iloh borligini da'vo qiladilar.

Beshinchi guruh, dunyo yaratilgan, abadiy yaratuvchi bor, deb hisoblaydi, lekin nubuvvatni inkor etadi. Brahmanlar bu guruhga kiritilgan.

Oltinchi guruh, ob'ektiv voqelikka, dunyoning yaratilishiga, yagona va abadiy yaratuvchi va payg'ambarlik borligiga e'tiqod qiluvchi, lekin ba'zi payg'ambarlarni qabul qilib, ba'zilarini inkor qiluvchi guruhdir. Yahudiylar va sehrgarlar bu guruhga tegishli. Xristianlar esa, to'rtinchi guruhga mansubdirlar, chunki ular uchlikka ishonadilar. Muhammad (s.a.v.)ning payg'ambarligini qabul qilmaganlari uchun oltinchi guruhga kiradilar.

Ibn Hazm sofistlar haqida gapirar ekan, u ilohiyotchilar ularni uch guruhga bo'lishganini eslatib o'tadi. Keyin dunyoning abadiy ekanligini qabul qiluvchilarga o'tadi va ularni ikki sinfga ajratadi.

Dunyoning birdan ortiq yaratuvchisi va hukmdori bor deyuvchilarni ham ikki guruhga ajratadi.

Nasroniylarning mazhablariga o'rin berar ekan, Aryus, samsatlik Pavlus tarafdorlari, Makdoniylar, Barbaroniyya, Melkaniyya, Nasturiyya, Ya'qubiyya kabi oqimlar va ularning qarashlarini tilga oladi. U Isoning xochga mixlanganiga ishonishni tanqid qiladi va Masihning tabiatini baholaydi.

Asarning keying qismlarida u payg'ambarlik va farishtalarni inkor qiluvchilar guruhiga payg'ambarlikning zarurligini ochib beradi. Ibn Hazm faylasuflarning shariatga o'z uslublariga asoslangan holda qarshilik ko'rsatishini aytib, ularni haqiqatdan bexabar, deb tavsiflaydi. Bularga baho berib, boshqa bir sarlavha ostida yahudiy va nasroniylar, sobiylar uchligini qabul qilmaydiganlar, majusiylar orasida Zardushtning payg'ambarligini qabul qilib, boshqa payg'ambarlarni inkor qiluvchilar haqida so'z yuritadi.

Yahudiylarning besh firqaga bo'linganligini ta'kidlagan Ibn Hazm, Somiriyya, Saduqiyya, An'oniyya, Rabboniyya va Isaviyyadan tashkil topgan bu firqalar haqida ma'lumot berib, yahudiylarning dunyo haqidagi qarashlariga ham to'xtalib o'tadi. Musulmonlar va yahudiylar o'rtasidagi munosabatlarga to'xtalgan Ibn Hazm, avvalgi kitoblarda payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ni zikr qilganligi masalasi haqida so'z yuritadi.

Yangi Ahdni, xususan, Injillarni tanqid qilishga o'tgan Ibn Hazm nasroniylikning paydo bo'lishi va rivojlanishi, to'rt Injil va ularning mualliflari va Yangi Ahdni tashkil etuvchi boshqa yozuvlar (risolalar) haqida ma'lumot beradi.

Shundan so'ng, musulmonlarning zaifligini da'vo qilayotgan Mulhidlar haqida gapiradi. Falsafaga sho'ng'ib, koinotda sodir bo'layotgan voqealarni tadqiq qilishga din mos kelmaydi, deganlarning qarashlarini inkor qiladi. (Ibn Hazm., 2007:352-361).

U koinotning yaratilishidan to hozirgi kungacha yahudiylar tomonidan to'rt ming yil, nasroniylar tomonidan besh ming, ba'zilar esa yetti ming yil ekanligini ta'kidlaydi. Ularni turli dalillar, xususan, "Men ularni osmonlari yerning yaratilishiga ham, o'zlarining yaratilishiga ham guvoh qilmadim"(Kahf,:51) oyatini dalil keltirib ularda aniq bir dalil yo'qligi sababli yolg'on ekanligini tanqid qiladi.

Keyin esa, islomdagi firqalarning qarashlarini ilohiyot masalalari bo'yicha birma-bir, dalillari bilan birga tahlil qiladi. Ibn Hazmning fikricha, Qur'on va Sunnatda Alloh taolaga nisbat berilgan "yad, vajh, ayn, nafs, janb" so'zlari ilohiy mohiyat bilan nazarda tutilgan.

So'ngra, u barcha islomdagi firqalarning ixtilofli mavzulari bo'lgan "iymon, kufr, toat, ma'siyat, va'da va vaid" haqidagi munozarali masalalarga to'xtalib o'tadi. Farishtalarga, hurlarga va boshqa maxluqotlarga

sig'inish, farishtalar isyon qiladimi yoki yo'qmi, degan masalaga to'xtaladi.

Mazhablar tarixiga oid bitilgan asarlarga nazar tashlasak, islomdagi firqalar tarixchilari mazhablarni o'zlariga ko'ra nom berib, shu nom bilan baholaganliklarini ko'ramiz. Ushbu olimlarning ba'zilar o'zlari ergashgan shaxsiga ko'ra, ba'zilar shu g'oyani targ'ib qilgan, ba'zilar esa aqida va qarashlariga ko'ra ularni shu nomlar bilan qo'yganlar.

Ibn Hazmning bu boradagi o'ziga xos xususiyati shundaki, u firqalarni o'z aqida va qarashlariga ko'ra nomlaydi. Ibn Hazm adashgan deb hisoblagan firqalarga nisbatan ko'proq "Bu fikrni qabul qilganlar ular orasidadir" iborasini ishlatadi. Ibn Hazmning firqalarni nomlash usuli hanafiy an'alariga deyarli mos keladi.

Ibn Hazm bu asarni yozish chog'ida o'zi to'g'ri deb bilgan narsalarini oshkor qilish uchun har xil dalillar keltirgan. Ba'zi joylarida kimdandir iqtibos keltirgan bo'lsa, ko'rsatishga harakat qilgan. Ba'zan to'g'ridan-to'g'ri o'z qarashlariga o'tgan. Ibn Hazm boshqalarning fikrini yetkazganda o'z qarashlarini yetkazishga harakat qilgan.

Islom mazhablarini ilmiy yo'l bilan taqdim etmoqchi bo'lgan Ibn Hazm har bir mazhabning qarashlarini o'z asarlaridan to'g'ridan-to'g'ri yetkazishni maqsad qilgan. Ibn Hazm Islomdagi firqalar bilan shug'ullanar ekan, ta'rifni shunday boshlaydi: "Islom dinida beshta yirik firqa bor: Ahli sunna, mo'tazila, murji'a, shia va xavoriij. Keyinchalik bu firqalarning har biri turli guruhlariga bo'lingan" (Ibn Hazm., 2007:368-369).

Ibn Hazmning "al-Fisol" asari bu soha bo'yicha yozilgan manbalardan mavzuni bayon etishda muallifning obektivligi, tanqidiy yondashganligi va dinlar ta'limotlarini batafsil keltirib o'tganligi bilan o'z ahamiyatiga ega. Buni yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ibn Hazm keng tafakkur va qamrov orqali boshqa dinlar aqidalariga munosabat bildirgan va turli dinlar va millatlar haqida atroflicha ma'lumotlar keltirgan. U kitobining birinchi bobini falsafada tanqidiy yondashuv vakillari haqida yozishdan boshlagan va kitobning oxirgi bobi islomdagi firqalar bilan tugallagan. Bundan ko'rinadiki, Ibn Hazm ushbu asarini ta'lif qilishda davriylik metodiga ham amal qilgan. Ko'pchilik olimlar asarlarida, jumladan, Abul-Hasan Ash'ariy "Maqolot"ida faqatgina islomdagi firqalarni yoki Abu Rayhon Beruniy "Hindiston" asarida faqatgina hind jamiyatidagi ta'limotlarni bayon qilish bilan cheklangan. Andalusiy esa, faqatgina islom dini yoki boshqa bir ta'limot bilan cheklanib qolmay, nafaqat

diniy ta'limotlar, balki, faylsafiy ta'limotlar, turli millat va xalqlar aqidalari, Ibrohimiy dinlarni bitta kitobga jamlagan.

Shuningdek, Ibn Hazm "al-Fisol" ta'lif etishda o'ziga xos bo'lgan uslub asosida ta'lif etgan. Uning metodi ma'lumotlarni jamlash va tanqidiy tahlil qilishga asoslangan. Bu uslubning boshqa olimlar tutgan uslublardan farqi, masalan, Shahristoniy asarini yozishda ma'lumot keltirish bilan cheklangan. Lekin, Ibn Hazm faqatgina bu bilan cheklanib qolmay, keltirgan ma'lumotlarini tanqidiy tahlil qilib, ularning har biriga alohida-alohida izohlar berib o'tgan.

ADABIYOTLAR

1. Abu Zahro. Ibn Hazm, hayatuhu va asruhu, arouhu va fiqhuhu. Dorul-fikril-Arabi, 1978. 544 s..
2. Anvar G. Chejne, "Ibn Hazm", Chicago: Kazi Publications, 1982. 360 p.
3. Brockelmann, Carl – Encyclopaedia Iranica. www.iranicaonline.org. Retrieved 2019-01-09.
4. Burgutkhonov S. Ibn Hazm Andalusi's book "Al-Fisol" is the first source in the comparative religious study of the East. Материалы международной научной конференции студентов и молодых учёных "Фараби элеми", Алматы, Казахстан, 06-08 апреля 2022г. – Алматы: Қазақ университеті, 2022. –С. 704-707.
5. Camilla Adang, Muslim writers on Judaism and the Hebrew Bible: from Ibn Rabban to Ibn Hazm (Leiden: Brill, 1996).
6. C. Pellat, "Ibn Hazm al-Andalusi," Journal of the Pakistani Historical Society 9 (1961).
7. Gabriel Martinez-Gros, "Ibn Hazm contre les Juifs: Un bouc émissaire jusqu'au jugement dernier," Atalaya 5 (1994).
8. Hasan Muhammad Hasan. Ibn Hazm al-Andalusiy, asruhu va manhajuhu va fikruhut-tarbaviy. Qohira, – S. 37.
9. Humaydiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Futuh. Jazvatul-Maqtabis fi Zikri Vulatil-Andalus, (thk. Muhammad Tavit at-Tanjij), Qohira, 1953. –S. 291.
10. Himoya, Mahmud Ali. Ibn Hazm va manhajuhu fi dirasatil-adyan. Qohira: "Dorul-maorif", 1983. 380 s.
11. Ibn Asir, Abul-Hasan Ali ibn Abil-Karim Muhammad ibn Muhammad ash-Shayboniy. Al-Komil fit-tarix. Bayrut 1966, IX.
12. Ibn Hazm. Al-Fisol fil-milal val-ahva van-nihal. Bayrut: "Dorul-jiyl", 1996. 5 jild.
13. Jurjoni, Ali ibn Muhammad Sayyid Sharif. Mu'jamut-ta'rifot. Qohira: "Dorul-fadila", 2007. 382 s.
14. Ibn Manzur, Abul-Fadl Jamaluddin Muhammad. Lisanul-Arab. "F.S.L" md., Bayrut ts., XI.
15. Mehmet Özdemir, Endülüs Müslümanları (Siyasi Tarih), 3. Baskı, TDV, Ankara 2010.
16. Ислам. Энциклопедический словарь. М.: Наука, Главная редакция восточной литературы, 1991.
17. Maribel Fierro. Ibn Hazm et le zindiq juif. Revue du Monde Musulman et de la Mediterranee 63-64 (1992).

18. Nurshif Rif'at. Ibn Hazm on Jews and Judaism. (Diss., Exeter University, 1988).
19. Philip K. Hitti, Abu-Muhammad al-Hasan ibn-Musa al-Nawbakhti, Hellmut Ritter & Abu-Muhammad al-Hasan ibn-Musa al-Nawbakhti. Journal of the American Oriental Society 54 (2):214 (1934).
20. R.R.Isakdjanov. Ibn Sino teologik ta'limotida gnoseologik tamoyillar. Monografiya. O'zXIA, - / Toshkent: "Qamar media" nashriyoti. 2022.
21. Reynold A. Nicholson, A Literary History of the Arabs (London: T. Fisher Unwin 1907; reprint: Cambridge University 1962). -P. 427-428.
22. Subkiy, Tajuddin Abu Nosir Abdulvahob ibn Ali. Tabaqotush-Shafiyatil-Kubro. (Mahmud Muhammad at-Tanahiy), Bayrut, 1420/1999, I.
23. Toxtiev Mr, S. (2020). Social and cultural life of the shiite communities of Central Asia in the XX-early XXI centuries. *The Light of Islam*, 2020(2), 82-90. <https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=1171&context=iiau>
24. Theodore Pulcini, Exegesis as Polemical Discourse: Ibn Hazm on Jewish and Christian Scriptures (Atlanta: Scholars Press, 1998).
25. William M. Brinner and Stephen D. Ricks, 109-121 (Atlanta: Scholars Press, 1986); Ghulam Haider Ahasi, "Muslim understanding of other religions: an analytical study of Ibn Hazm's Kitab al-Fasl," (Ph.D. diss., Temple University, 1986).
26. Zahabiy, Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad. Siyaru A'lamin-Nubala, (thk. Shuayb al-Arnaud Muhammad Naim al-Arkasusiy), Bayrut, 1406/1985, XVIII, -B. 185-186.
27. Xoji Xalifa, Mustafo ibn Abdulloh Kotib Jilbiy. Kashfuz-zunun a'n-asomil-kutub val-funun. Bayrut: "Dor ihyo' at-turos al-arabi", 1024 s.
9. Humaydi, Abu Abdullah Muhammad ibn Futuh. Jazwatul-Maqtabis fi Zikri Wulatil-Andalus, (thk. Muhammad Tavrit al-Tanji), Cairo, 1953. -S. 291.
10. Himaya, Mahmoud Ali. Ibn Hazm wa manhajuhu fi dirasatil-adyan. Cairo: "Darul-maarif", 1983. 380 p.
11. Ibn Asir, Abul-Hasan Ali ibn Abil-Karim Muhammad ibn Muhammad al-Shaybani. Al-Kamil Fit-Tarikh. Beirut 1966, IX.
12. Ibn Hazm. Al-Fisal fil-milal wal-ahwa wan-nihal. Beirut: "Darul-jiyl", 1996. 5 volumes.
13. Jurjani, Ali ibn Muhammad Sayyid Sharif. Mu'jamut-tarif. Cairo: "Darul-fadila", 2007. 382 p.
14. Ibn Manzur, Abul-Fadl Jamaluddin Muhammad. Lisanul-Arab. "F.S.L" md., Beirut ts., XI.
15. Mehmet Özdemir, Andalusian Muslims (Political History), 3rd Edition, TDV, Ankara 2010.
16. Islam. Entsiklopedichesky dictionary. M.: Nauka, Glavnaya redaktsiya vostochnoy literatury, 1991.0
17. Maribel Fierro. Ibn Hazm et le zindiq juif. Revue du Monde Musulman et de la Mediterranee 63-64 (1992).
18. Nurshif Rifat. Ibn Hazm on Jews and Judaism. (Diss., University of Exeter, 1988).
19. Philip K. Hitti, Abu-Muhammad al-Hasan ibn-Musa al-Nawbakhti, Hellmut Ritter & Abu-Muhammad al-Hasan ibn-Musa al-Nawbakhti. Journal of the American Oriental Society 54 (2):214 (1934).
20. R.R. Isakdjanov. Epistemological principles in Ibn Sina's theological teaching. MONOGRAPH. IIAU, - / Tashkent: "Qamar media" publishing house. 2022.
21. Reynold A. Nicholson, A Literary History of the Arabs (London: T. Fisher Unwin 1907; reprint: Cambridge University 1962). -P. 427-428.
22. Subki, Tajuddin Abu Nasir Abdulwahab ibn Ali. Tabaqatush-Shafiyatil-Kubro. (Mahmud Muhammad al-Tanahi), Beirut, 1420/1999, I.
23. Toxtiev Mr, S. (2020). Social and cultural life of the shiite communities of Central Asia in the XX-early XXI centuries. *The Light of Islam*, 2020(2), 82-90. <https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=1171&context=iiau>
24. Theodore Pulcini, Exegesis as Polemical Discourse: Ibn Hazm on Jewish and Christian Scriptures (Atlanta: Scholars Press, 1998).
25. William M. Brinner and Stephen D. Ricks, 109-121 (Atlanta: Scholars Press, 1986); Ghulam Haider Ahasi, "Muslim understanding of other religions: an analytical study of Ibn Hazm's Kitab al-Fasl", (Ph.D. diss., Temple University, 1986).
26. Zahabi, Shamsuddin Muhammad ibn Ahmed. Siyaru A'lamin-Nubala, (thk. Shuayb al-Arnaud Muhammad Naim al-Arkasusi), Beirut, 1406/1985, XVIII, -B. 185-186.
27. Haji Khalifa, Mustafa ibn Abdullah Katib Jilbi. Kashfuz-zunun an-asomil-kutub wal-funun. Beirut: "Dar ihyo' at-turos al-arabi", 1024 p.

REFERENCES

1. Abu Zahra. Ibn Hazm, Hayatuhu and Asruhu, Arouhu and Fiqhuhu. Darul-fikril-Araby, 1978. 544 p.
2. Anwar G. Chejne, "Ibn Hazm", Chicago: Kazi Publications, 1982. 360 p.
3. Brockelmann, Carl – Encyclopaedia Iranica. www.iranicaonline.org. Retrieved 2019-01-09.
4. Burgutkhonov S. Ibn Hazm Andalusi's book "Al-Fisol" is the first source in the comparative religious study of the East. Materials International Scientific Conference of Students and Young Scientists "Farabi alemi" Almaty, Kazakhstan, April 6-8, 2022–P. 704-707.
5. Camilla Adang, Muslim writers on Judaism and the Hebrew Bible: from Ibn Rabban to Ibn Hazm (Leiden: Brill, 1996).
6. C. Pellat, "Ibn Hazm al-Andalusi", Journal of the Pakistani Historical Society 9 (1961).
7. Gabriel Martinez-Gros, "Ibn Hazm contre les Juifs: Un bouc emissaire jusqu'au jugement dernier," Atalaya 5 (1994).
8. Hasan Muhammad Hasan. Ibn Hazm al-Andalusi, asruhu wa manhajuhu wa fikruhut-tarbawi. Cairo, - S. 37.